

AUTIZM SINDROMLI BOLALAR VA ULAR BILAN OLIB BORILADIGAN REABILITATSIYA JARAYONLARI

Abduqunduzova Gulsora

Xalqaro Nordik universiteti

2-kurs maxsus pedagogika yo'nalishi talabasi

gulsoraabduqunduzova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Autizm sindromining kelib chiqish sabablari va bu sindromning turlari keltirilgan. Autizm sindromining boshqa kasalliklardan farqi va bu sindromga ega bo'lgan bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash haqida ham so'z boradi. Autizm sindromi odatda tashqi olamdan ajralish, reallikdan qochish va kommunikativ funksiyalarning buzilishi kabilarni o'z ichiga oluvchi sindrom hisoblanadi. Maqolada sindromning asosiy belgilari ham aytib o'tilgan. Ushbu sindromli bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlar, turli terapiyalar va metodlar haqida ham aytilgan. Bu sindromga ega bolalarni hayotda muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi va o'z o'rniga ega bo'lishidagi turli yondashuvlar batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: Sindrom, rehabilitatsiya, korreksiya, terapiya, spektr, tafakkur, nutq faoliyati, xotira, individual imkoniyat, maktab ta'limi, ruhiy rivojlanish.

Bugungi kunda mamlakatimizda insonning ruhiy rivojlanish muammolariga tobora e'ribor kuchayib bormoqda. Ruhiy rivojlanish bu - inson uchun eng muhim rivojlanish hisoblanadi. Ruhiy rivojlanish insonning xulq-atvorini, fikrlarini va tafakkurini ifodalaydi. Ruhiy rivojlangan inson o'z his-tuyg'ularini, maqsadlarini va intilishlari shuningdek, turli orzu-umidlarini to'liq anglaydi va bayon qila oladi. Ruhiy rivojlanishi yetuk bo'lgan insonlarning yashash maqsadlari va ijtimoiy hayotimizda qanchalik faol bo'lishi kerakligini anglaydi. Ruhiy rivojlanishdan orqada qolgan insonlarda esa yuqorida aytilgan barcha xususiyatlar orqada qola boshlaydi. Autizm sindromini ham huddi shu singari ruhiy rivojlanishdan orqada qolgan insonlar misolida tushuntirishimiz mumkin. Autizm sindromida ham inson hissiy qashshoqlashib boraveradi, ya'ni boshqa odamlar bilan aloqaning yo'qligi va buning natijasida insonlar orasida turli munosabatlarni o'rnatish olmaslik kelib chiqadi. Autizm sindromida inson ijtimoiy yakkalangan holatda bo'ladi va atrofdagilar bilan muloqot qilish qobiliyati buzilgan holatda bo'ladi. Bolalikdan boshlab emotsional-irodaviy sohaning buzilishlaridan biri bu - Autizm sindromidir.

So'nggi yillarda butun dunyo miqyosida Autizm sindromli bolalar soni ortib borayotganligi sababli, ushbu muammoni hal etishga qaratilgan chora-tadbirlar ya'ni,

defektologlar, psixologlar, pedagoglar, psixiatrlar, tibbiyot xodimlari va ota-onalarning o'rtasida sindromning kelib chiqish sabablarini aniqlash, ularni korreksiyalash ishlari olib borilmoqda. Autizm nerv sistemasi kasalliklari qatoriga kiradi. Ushbu nuqson barcha bolalarda turlicha ko'rinishda namoyon bo'ladi. Ayrim olimlarning fikricha bu sindrom, ruhiy kasallikning belgilaridan biri bo'lib, bunda bolada chuqur o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bola o'z-o'zi bilan bo'lib, o'zicha hayajonlanib, kuyinib, nimalardandir tashvishli holatda bo'ladi ya'ni, o'z ichki dunyosida yashaydi. Bunday sindromli bolalarning ba'zilarida emotsional qiyinchiliklar ham mavjud bo'ladi. Emotsional tushkunliklar yaqin orada bo'lib o'tgan jarohatlar, hafagarchiliklar va uzoq vaqt ongli ish bilan shug'ullanish natijasida ham kelib chiqishi mumkin.

Autizm sindromini o'rganish davomida uning tarixiga ko'z tashlash zarur. Bu sindromni birinchi marta Leo Karner 1943-yilda tasvirlab bergan. U bu sindromga ega bolalarni aniqlaydi va ularni chuqur kuzata boshlaydi. Shunday qilib, bu sindrom 1943-yildan o'rganila boshlandi. "Autizm" atamasini birinchi marta ishlatgan Nemis psixiatri E.Bleyler 1911-yilda sindromni aniqlash davomida o'zini parvarish qilish shaklida namoyish qiladi. "Inson tashqi voqealikdan o'z hayollariga g'arq bo'ladi" degan fikrlar ham mavjud.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyo bo'yicha taxminan 75 million odam autizm spektriga ega, bu dunyo aholisining 1 foizini tashkil qiladi. 2021-yilda har 100 boladan 1 nafariga autizm spektrining buzilishi tashxisi qo'yilgan.

Ushbu atama butun dunyoda keng qo'llanilishiga qaramay hali hanuz aniq kelib chiqish sababi aniqlanmagan. 70-yillarda sindromning kelib chiqishini "bag'ritosh, bemehr ona" nazariyasi bilan atashgan. Bu nazariyaning ham haqiqatga yaqin bir jihati bor. Autizmga ega bolalarning ko'pchiligiga ota-onalari e'tiborini kam qaratishadi. Chunki deyarli barcha autist bolalar ota-onalarining gap so'zlariga befarq, emotsiyaga ega bo'lishmaydi. Autizm sindromining kelib chiqish sabablariga bosh miya sinaptik bog'lanishlarni yuzaga kelishida ta'sir ko'rsatuvchi gen bilan bog'liq. Hozirgi kunda sindromning kelib chiqishida bolalar vaktsinatsiyasi (emlash) bilan bog'liq bo'lgan hech qanday ilmiy isbotlar topilgan emas.

Autizmning quyidagi turlari bor:

1. Tipik autism:

Tipik autism bolalikdan boshlanadigan va turli xil ijtimoiy muloqot, xatti-harakatlardagi qiyinchiliklar bilan namoyon bo'ladigan neyrorivojlanish buzilishi hisoblanadi. Bunday shaxslar takroriy xatti-harakatlar va muayyan manfaatlarga haddan tashqari sadoqat kabi alomatlarni boshdan kechirib borishadi. Bu sindromli shaxslarda shunday hollarini ko'rish mumkinki, tushunmaslik va noverbal muloqotdan foydalanmaslik, chegaralangan, takrorlanuvchi xulq-atvor va qiziqishlar, qo'rquv, ovqatlanishdagi va uyqudagi buzilishlar,

g‘azablanishlar, agressivlik, o‘z-o‘ziga shikast yetkazish kabi muammolar ularga katta qiyinchiliklar olib keladi.



1-rasm. Bolalarda autizm belgilari

2. Asperger autizm:

Bu autizmning turi ham keng tarqalgan hisoblanadi. Bu turda asosan, kognitiv va nutqiy rivojlanish normal holatda bo‘ladi, takrorlanuvchi harakatlar kuzatiladi. Bu turdagi shaxslarda sindrom hayotning dastlabki uch yiligacha bilinmaydi.

3. Rett sindromi:

Autizmning bu turi faqatgina qizlarda uchraydi. Bu tur hayotning dastlabki uch yilligida namoyon bo‘la boshlaydi. Bu sindromning asosiy belgilariga aqliy zaiflik, qo‘l va oyoqda harakatning buzilishi-skolioz, orttirilgan “mikrosefaliya”, harakatlar jarayonida nafas olishdagi qiyinchiliklar va talvasalar kuzatilishi mumkin.

4. Atipik autizm:

Autizmning bu turida alomatlar yengilroq yoki belgilar turli yo‘llar bilan namoyon bo‘lishi mumkin. Bu sindrom hayotning uch yilligidan so‘ng namoyon bo‘ladi. Asosan bu tur og‘ir nutq buzilishlari va chuqur aqli zaif bolalarda paydo bo‘ladi. Atipik autizmni tashxislashda mutaxassislar bir qancha qiyinchiliklarga duch keladilar, chunki bu tur kamroq namoyon boladi. Bu turni oldini olish uchun, bolalarni erta qo‘llab-quvvatlash va odamlarga qo‘shilishlari, ijtimoiy va hissiy ko‘nikmalarni rivojlantirishlariga yordam berishi bilan bog‘liq.

Autizm bolalarning ta'limiga ham respublikamiz miqyosida katta e'tibor berilmoqda. Shu jumladan, mutaxassislarning beradigan yordamlari tufayli bu sindromli bolalarning ta'limidagi bir qancha muammolar o'z yechimini topib bormoqda. Biz bu sindromga ega bolalarning ta'limini visual yordam, aniq ko'rsatmalar, ijobiy rag'batlantirish, sensorli qulaylik va maxsus dasturlar yordamida olib borishimiz kerak. Vizual yordam deganda bolani rasmlar, jadvallar va boshqa predmetlar orqali ta'limga jalb qilishimiz nazarda tutilgan. Masalan, kun tartibi rasmlar bilan ko'rsatilsa, bola nima qilish kerakligini yaxshi tushunadi va ularga kun tartibiga amal qilish yanada osonlashadi. Bolani ta'limga qiziqtirishda aniq ko'rsatmalar berish juda ham muhim. Masalan, bolaga biror ish-harakatni tushuntirishda, qisqa va oddiy gaplar bilan tushuntirish zarur. Bolani ta'lim jarayonida ijobiy rag'batlantirish unda qoniqish hissini uyg'onishiga olib keladi. Agar bola yaxshi ish qilsa, uni maqtash va bu ishidan faxrlanish kerak. Shunda bola shu holatini saqlab qolishga va davom ettirishga harakat qiladi. Albatta, Autizm sindromli bolalarga ta'lim berilayotganda xonadagi sensorli qulayliklarga e'tibor berish kerak, ya'ni sinfda shovqin va yorug'likni kamaytirishimiz zarur. Bu sindromga ega bolalarga ta'lim berishda yangi nutq terapiyalari yoki jismoniy mahoratni oshirish dasturlari ham birgalikda o'rgatilib borilishi zarur.

Shunday qilib aytishimiz mumkinki, bu sindromga ega shaxslar ham jamiyatimizning bir bo'lagi hisoblanishadi. Ular ham oddiy insonlar kabi ta'lim olishlari va oddiy insonlarga nisbatan ko'proq natijaga erishishlari mumkin. Masalan: Enshteyn, Sia, Bill Geyts, Van Gog, Darvin kabilar.

Bundan ko'rinib turibdiki, ushbu sindromga ega bolalar bilan defektologlar, logopedlar tomonidan olib boriladigan korreksion mashg'ulotlar bolalarda albatta, ijobiy o'zgarishlarni yuzaga keltiradi.

Autizm sindromli bolalarni inklyuziv ta'limga integratsiya qilish- bu nafaqat ta'lim bo'yicha balki, ijtimoiy jihatdan ham katta ahamiyatga ega jarayondir. 1996-yilda Karagiannis, Stainbacklarning ta'kidlashicha, tarixan nogiron talabalar o'z tengdoshlaridan, hatto butun jamiyatdan ajralgan. Evans va hamkasblari tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, nogironligi bo'lgan, shu jumladan Autism sindromiga ega bo'lgan bolalar inklyuziv ta'limda tahsil olayotgan tengdoshlari tomonidan sinfdagi eng mashhur o'quvchilar sifatida baholansa, boshqalar esa bunday baho olmaydilar. Ular shuni aniqlashdiki, nogironligi bo'lgan o'quvchilar boshqalardan ko'proq yordan oladigan, o'zlari esa kam yordam beradigan o'quvchilar sifatida kuzatilgan. Bu ko'rsatkich yil davomida yanada ortib borgan. Shunday qilib, ijtimoiy xulq-atvor bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar rag'batlantiruvchi natijalarga ega bo'lgan lekin, o'zgaruvchan bo'lgan.

Mening fikrimcha, ushbu sindromga ega o'quvchilarni inklyuziv ta'limga jalb qilingandan keyin, normada rivojlanayotgan tengdoshlari orasida sog'lom va iliq muhitni yaratish juda muhimdir. To'g'ri tashkil etilgan qo'llab-quvvatlovchi muhit va mutaxassislar ko'magida bolalar o'z salohiyatini namoyon qila oladilar.

Autizmga ega o'quvchilarni ta'lim muhitida baholovchi bir qancha tadqiqotlar o'tkazilgan. Jumladan, Harris, Handleman, Kristoff, Bass va Gordon tomonidan 1990 -yilda o'tkazilgan solishtirishlarda olimlar maxsus bog'chada ta'lim oladigan 5 nafar autizmga ega bola va inklyuziv sinfda ta'lim oladigan 5 nafar autizmga ega bola tanlab olingan. Ular nutqi bo'yicha ta'lim jarayonidan oldin va keyingi holatlarni taqqoslashganda ikki guruhdagi o'quvchilarning nutqida sezilarli o'zgarishlar aniqlanmagan. Bunday natijalar, inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlovchi dalil sifatida talqin qilingan, chunki maxsus maktablar tarixdan o'quvchilar uchun inklyuziv maktablarga qaraganda yaxshiroq ta'lim imkoniyatlari taqdim etilishi aytilgan bo'lsa ham, tadqiqotlar har doim ham buni tasdiqlamaydi. Tadqiqotchilar doim shuni ta'kidlashganki, shunchaki o'z tengdoshlari bilan bir joyda bo'lish va ular bilan birga dars qilish Autizm sindromiga ega bolalar uchun yetarli hisoblanmaydi. Shuning uchun, inklyuziv ta'limni tadqiqotchilar, shunchali nogironlikka ega bolani o'z tengdoshlari orasiga joylashtirish emas, maxsus ta'lim ximztlarini qayta taqsimlovchi va inklyuziv muhitlarda qollab-quvvatlovchi xizmatlarni joriy etishda sifatga ko'proq e'tibor qaratishni aytishadi. Mening fikrimcha, yuqorida keltirilgan tadqiqotlar natijasiga ko'r usbu fikrlar o'z natijalarini to'la qonli ko'rsata oladilar. Agar Yangi O'zbekistonimizda ham inklyuziv ta'limni joriy etishda ushbu yo'nalishlarga ko'roq e'tibor qaratilsa, ushbu ta'lim Autizm sindromiga ega bo'lgan bolalar uchun samarali bo'ladi. Demak, autizm sindromli bolalarni inklyuziv ta'limga integratsiya qilish ijobiy natijalarni keltirib chiqaradi. Masalan:

- ☐ Ushbu sindromga ega bo'lgan bolalar asta-sekin vaqt o'tishi bilan jamiyatga moslashadi va mustaqil bo'lishni o'rganadi.
- ☐ Tengdoshlari o'rtasida mehr, qo'llab-quvvatlash va bag'rikenglik kuchayadi.
- ☐ Sindromga ega bola o'z qiziqishlarini aniq tushunadi va o'z sohasining yaxshi mutraxassisi bo'lib yetishishlari mumkin bo'ladi.

Ushbu ta'limga jalb qilingan autism sindromli bolalarni o'quv dasturlari, o'qitish metodlari va sinf muhiti bolalarni individual ehtiyoqlariga moslashtiriladi. Bu o'quvchilarni yaxshi rivojlanishini ta'minlaydi. Shuni ham aytib o'tishimiz kerakki, ushbu jarayonda turli muammolar ham yuzaga kelishi mumkin. Misol uchun pedagoglarning yetarlicha salohiyatga ega bo'lmasligi, tengdoshlari tomonidan tushunmovchiliklar yoki ijtimoiy ajralish holatlari, o'quv muhitining bolaga mos bo'lmasligi ham shular qatoriga kiradi. Bu muammolarni bartaraf etish uchun o'qituvchilarni ushbu sindrom haqida to'liq ma'lumotga

ega bo'lishlari ya'ni maxsus tayyorlash dasturlarini yo'lga qo'yilishi, ota-onalar bilan doimiy ravishda hamkorlik o'rnatilishi va ta'lim muassasalarini moslashtirish zarur.

Xulosa qilib, shuni aytishimiz kerakki, Autizm sindromga ega bo'lgan bolalarni qo'llab-quvvatlash ijtimoiy hayotga integratsiya qilish va shu bilan birga, to'g'ri reabilitatsiya ishlarini olib borish juda muhim. Ushbu sindromli bolalar bilan logopedlar, defektologlar va psixologlar tomonidan doimiy tarzda mashg'ulotlar olib borilishi kerak. Ushbu sindromli bolalarni inklyuziv ta'limga integratsiya qilish esa, zamonaviy ta'limning eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Ushbu sindromli bolalar o'ziga xos qobiliyatlari, fikrlashlari va sezgiga ega bo'lib, ularni ta'lim jarayoniga jalb qilish jamiyatda insonparvarlik, bag'rikenglik va tenglik tamoyillarini amalda ko'rsatadi. Ushbu ta'lim orqali bolalar nafaqat ta'lim oladi balki, muloqot ko'nikmalari rivojlanadi va o'z salohiyati to'liq namoyon qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu bilan birga, ushbu ta'lim sog'lom bolalarga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ularda do'stlik, hamdardlik va o'zlaridan farqli insonlarni qabul qilishni o'rganadilar.

Yana shuni ham aytishimiz kerakki, ushbu sindromli bolalarni inklyuziv ta'limga jalb qilish ularning huquqlarini ta'minlash bilan birgalikda, butun jamiyatni rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Chunki, har bir bola o'ziga xos dunyo. Inklyuziv ta'lim faqat imkoniyati cheklangan bolalar uchun emas, balki butun jamiyatda insonparvarlik kabi tuyg'ularni beruvchi ta'lim tizimidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Raxmanova D.U. Inklyuziv ta'limda fanlarni o'qitishning pedagogik shart-sharoitlari. – Toshkent: Fan ziyosi, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4860-son Qarori. – 2020.
3. “2020–2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi”. – O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, 2020.
4. “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”. – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, 2022.
5. Feruza T. Inklyuziv ta'limning O'zbekistonda rivojlanishi. – “Qo'qon Universiteti xabarnomasi”, 2023.
6. Mo'minov S.A. Yaponiyada inklyuziv ta'limdan inklyuziv jamiyatga o'tishda pedagoglarning faoliyati hamda maktab direktorlarining innovatsion boshqaruv salohiyatini

takomillashtirish. – O‘zbekiston Respublikasi Ta’limni rivojlantirish ilmiy-metodik markazi, 2025.

7. Mo‘minova U., Narzullayeva N. Bolalarda uchraydigan autizm kasalligining jadallashuvi. - 2025.

8. Maqsuda Norbosheva, Kayumova Moxinisa, Odiljonov Ozodbek Odiljonovich Autizm spektr buzilishi: sabablari, belgilari va jamiyatdagi o‘rni. - 2025.

9. Otajonova, O. A., Islamova, F. S., Fayazova, F. S., & Nematov, B. S. (2022). The Influence Of Parental Relationships On Adolescent Gender Identity. Journal of Positive School Psychology, 6(10).

10. Islamova, F. (2024). Ёшларни мустақил оилавий ҳаётга тайёрлашда инсоний фазилат ва сифатларнинг тарбиявий аҳамияти: ёшларни мустақил оилавий ҳаётга тайёрлашда инсоний фазилат ва сифатларнинг тарбиявий аҳамияти. Nordic_press, 1(0001).